

OZIQ-OVQAT TOVARLARI ISHLAB CHIQRISHDA “BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASH” REJIMINING AHAMIYATI

Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi Tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi xodimi

Shukurov Orifjon Abduraxmonovich

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti magistratura bosqichi tinglovchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada import o‘rnini bosuvchi oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishda “bojxona hududida qayta ishlash” bojxona rejimining ahamiyati, mavjud muammolar va ularning yechimlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *import o‘rnini bosuvchi tovar, oziq-ovqat xavfsizligi, bojxona rejimi, “bojxona hududida qayta ishlash” bojxona rejimi, chiqish normasi.*

Аннотация: *В данной статье анализируется значение таможенного режима «переработка на таможенной территории» при производстве импортозамещающей пищевой продукции, существующие проблемы и пути их решения.*

Ключевые слова: *импортозамещающие товары, продовольственная безопасность, таможенный режим, таможенный режим «переработка на таможенной территории», норма выхода.*

Abstract: *This article analyzes the importance of the customs regime of “inward processing” in the production of import-substituting food products, existing problems and their solutions.*

Key words: *import substitute goods, food safety, customs regime, customs regime of “inward processing”, rates of yield.*

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan, oqibatini baholash qiyin bo‘lgan keskinliklar sharoitida O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning dolzarb masalalaridan biri import o‘rnini bosuvchi oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish orqali importga bog‘liqlikni pasaytirish hisoblanadi. Bunda “bojxona hududida qayta ishlash” bojxona rejimida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishning o‘rni beqiyosdir.

2023-yil yakuniga ko‘ra, O‘zbekistonning tashqi savdo tovar aylanmasi

46,56 mlrd. dollarni tashkil etib, shundan, 35,57 mlrd. (76,4%) import, 10,99 mlrd. (23,6%) eksportni tashkil etdi. Tashqi savdo saldosi -24,58 mlrd. dollar, yoki

-52,8 foiz manfiy ko‘rsatgichga ega bo‘ldi. Import miqdorining eksportga nisbatan bu qadar katta ekanligi mamlakatda import o‘rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishni kengaytirishga e‘tibor qaratish zarurligini ko‘rsatib bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 18-yanvar kuni “2024-yilda investitsiya, eksport va sanoat sohalaridagi ustuvor vazifalar muhokamasi” yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida “mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga

yetkazishda ishonchli logistika zanjirlarini tashkil qilish, mintaqaviy va yirik xalqaro loyihalarni jadallashtirish, tovarlarni bojxona rejimida qayta ishlashni kengaytirish” bo’yicha topshiriqlar berildi .

Material va metodlar

Ushbu maqola mavzusini yoritishda amerikalik olim G.Gereffi, MDH olimlari R.Meshechkina, A.Kolpakov, S.Istomin, A.Suxarev, A.Antonov, N.Mojenko va turkiyalik olim S.Durularning tadqiqotlari o’rganildi. Ushbu olimlarning ishlarida iqtisodiyotning ma’lum bir tarmoqlari (asosan oziq-ovqat sanoati) tomonidan bojxona hududida qayta ishlash rejimini qo’llashning samarasi, o’ziga xos xususiyatlari va ushbu rejimdan foydalanishning ushbu tarmoqlar rivojiga ta’siri tahlil qilingan.


Mazkur ilmiy maqolani tadqiq etishda umum-ilmiy uslublar: funksional yondashuv, tizimlilik, taqqoslash, qiyoslash, induksiya va deduksiya hamda boshqa metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Tahlillar asosida oziq-ovqat tovarlari importiga bo’lgan bog’liqlikni yumshatishda bojxona hududida qayta ishlash rejimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ahamiyati o’rganildi. Mazkur rejimda oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish bo’yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari tahlili

O’zbekistonda bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga rasmiylashtirilgan tovarlar tarkibi tahlil qilinsa, uning kam sonli tovarlarga bog’lanib qolganligini ko’rish mumkin (1-rasm). Asosan ikki turdagi tovar (bug’doy, transport va uning ehtiyot qismlari) butun qayta ishlashga joylashtirilgan tovarlar qiymatining qariyb 80 foizini tashkil etmoqda. Bu esa o’z navbatida, bojxona hududida qayta ishlash rejimi imkoniyatlaridan samarali foydalanilmayotganligi haqida xulosa qilishga asos bo’ladi.



1-rasm. Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlar (2023-yil)³

Oxirgi yillarda O’zbekiston hukumati tomonidan bojxona hududida qayta ishlash rejimida tovarlarni qayta ishlashda tadbirkorlarga qulayliklar yaratishga muhim e’tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-

apreldagi “Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimini qo‘llashni soddalashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-115 son Farmoni ushbu rejim imkoniyatlarini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Farmon 2022-yilning 1-mayidan kuchga kirib, u bilan bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga tovarlarni rasmiylashtirishdagi ko‘plab to‘siqlar olib tashlandi.

Jumladan:

- qayta ishlash operatsiyalari ro‘yxati mahsulotlarni qadoqlash, o‘rash, saralash, tozalash, uskunalarni modernizatsiya qilish kabi operatsiyalarni kiritish hisobiga kengaytirildi;

- bojxona hududida qayta ishlash rejimiga rasmiylashtirishda tovarlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini majburiy tasdiqlash hamda sanitariya-epidemiologik xulosani taqdim etish tartibi bekor qilindi;

- maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari va vakolatli iqtisodiy operator maqomiga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari uchun bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta‘minlash talabi olib tashlandi;

- tovarlar eksport qilingandagi moliyaviy va tarif imtiyozlari qayta ishlashdan hosil bo‘lgan tayyor mahsulotlar reeksportiga ham tatbiq etilishi belgilandi.

Farmon qabul qilinishi natijasida bojxona hududida qayta ishlash rejimida tovarlarni rasmiylashtirgan tadbirkorlik subyektlari soni 2022-yildagi 157 nafardan 2023-yilda 254 nafarga, rejimga rasmiylashtirilgan tovarlar qiymati 398,56 mln. dollardan 701,16 mln. dollarga (qariyb 76 foizga) oshdi (1-jadval). Jami 123 turdagi oldin bojxona hududida qayta ishlash rejimiga rasmiylashtirilmagan tovarlar ushbu rejimga joylashtirildi. Ushbu tovarlar tarkibida saralash va qadoqlash maqsadida olib kirilgan ho‘l va quruq mevalar, tozalash va qadoqlash maqsadida olib kirilgan o‘simlik yog‘i, qadoqlash uchun olib kirilgan mineral o‘g‘it tovarlari va ushbu tovarlarni qadoqlashda ishlatiladigan tovarlar asosiy o‘rinni egallaydi.

Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimining qo‘llanilish dinamikasi (mln. doll.)

1-jadval

Yil	2022	2023	Farq	Farq foizda
Rejimga rasmiylashtirgan tashkilotlar soni	157	254	97	61,8%
Rejimga rasmiylashtirilgan tovarlar qiymati	398,56	701,16	302,60	75,9%
Qayta ishlash mahsulotlari eksporti (reeksporti)	338,78	775,77	437,00	129,0%

Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimini qo‘llashga doir yaratilgan qulayliklarga qaramasdan, rejimning qo‘llanilishi jadal ravishda ortib ketishiga to‘siq bo‘layotgan ayrim muammolar ham mavjud. Bular:

1) Tadbirkorlik subyektlari bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi, uning imkoniyatlari to‘g‘risida yetarli ma‘lumotga ega emas;

2) bojxona kodeksidagi ekvivalent tovarlar va ekvivalent kompensatsiya uchun ko'rsatilgan talablar birmuncha murakkabligi sababli ular bilan bog'liq operatsiyalar amalda juda kam amalga oshiriladi;

3) qayta ishlash mahsulotlarida foydalanilgan xomashyo tovarlarini identifikatsiyalashning murakkabligi;

4) qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasini aniqlashning noaniqligi.

Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi nafaqat eksport tovarlarini ishlab chiqarishda, balki import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishda ham tadbirkorlik subyektlari uchun muhim vosita sanaladi. Ayrim davlatlar amaliyotida qayta ishlash mahsulotlarini keyinchalik mamlakat hududida erkin muomalaga chiqarishni nazarda tutuvchi qayta ishlash rejimi ham amaliyotda qo'llaniladi. Bunga misol tariqasida Yevrosiyi iqtisodiy ittifoqi (Rossiya, Belorussiya, Qozog'iston, Armaniston, Qirg'iz Respublikasi)ning Bojxona kodeksiga muvofiq "ichki iste'mol uchun qayta ishlash" bojxona rejimini olish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga muvofiq tovarlarni qayta ishlash bilan bog'liq rejimlar ikkita – bojxona hududida qayta ishlash, bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash rejimlaridan iborat. Bunda mamlakat ichida erkin muomalaga chiqariladigan tovarlarni ishlab chiqarish bojxona hududida qayta ishlash rejimida amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

Davlat Rahbari huzurida o'tkazilgan yig'ilishda shuningdek, ichki bozor

oziq-ovqat mahsulotlari importiga bog'liq bo'lib qolayotganligi ta'kidlanib, talab yuqori bo'lgan 25 turdagi oziq-ovqat mahsulotini yurtimizda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha topshiriqlar berildi. Ushbu mahsulotlarga bo'lgan talabni ichki imkoniyatlar bilan qondirishda bojxona hududida qayta ishlash rejimini qo'llashning ahamiyati nihoyatda katta hisoblanadi.


Tahlillarga ko'ra importda ulushi eng yuqori bo'lgan 25 turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining jami import qiymati 1 mlrd. 54 mln. AQSh dollarini tashkil etib, shundan, kungaboqar yog'i, shokolad, alkogolsiz ichimliklar, bolalar ovqatlari kabilar eng asosiy mahsulotlardir (2-jadval).

Importda ulushi eng yuqori bo'lgan 25 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari to'g'risida ma'lumot (2023-yil)

2-jadval

№	Tovar nomi	Miqdori (ming tn.)	Qiymati (mln. doll.)
1	Kungaboqar yog‘i	290,06	282,53
2	Shokolad	51,85	153,06
3	Ichimliklar (alkogolsiz)	179,84	122,20
4	Bolalar ovqatlari	15,21	88,66
5	Sut o‘rnini bosuvchilar	30,20	46,94
6	Quyultirilgan sut va qaymoq	26,08	37,10
7	Pishloq	8,40	35,32
8	Margarin	14,15	25,76
9	Pechenie	9,87	23,58
10	Mayonez	14,61	21,47
11	Tez tayyorlanadigan lapsha	10,26	20,90
12	Chipslar	6,10	18,68
13	Saryog‘	2,83	18,67
14	Karamelli shirinliklar	8,76	18,26
15	Pishiriqlar (keks, pirog, pryanik va b.)	7,38	17,72
16	Qurtilgan un mahsulotlari (suxarik va b.)	5,83	16,23
17	Marmeladlar	5,41	16,14
18	Xamirturush	12,36	15,44
19	Vafli	5,68	15,02
20	Yogurt	10,37	13,26
21	Sous (ketchup, gorchitsa b.)	7,20	12,73
22	Konservalangan go‘sht mahsulotlari	3,52	9,84
23	Konservalangan kartoshka	6,09	9,31
24	Sut zardobi (sivorotka)	11,51	8,99
25	Makaron	7,80	6,46
Jami		751,39	1 054,30

Tahlillar O‘zbekistonning 2018-2022-yillardagi ushbu 25 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari importi yillik o‘rtacha 192,6 mln. dollarga, yoki 41,25 foizga o‘sib borayotganligini ko‘rsatmoqda (2-rasm).



2-rasm. Importda ulushi eng yuqori bo‘lgan 25 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari importi dinamikasi⁷ (mln. AQSh doll.)

Oziq-ovqat mahsulotlari importining yillik 40 foizga ortishi bu juda katta o‘sish ko‘rsatgichi bo‘lib, agarda ichki ishlab chiqarish orqali ehtiyojni qoplash choralari ko‘rilmasa, bu holat mamlakatning oziq-ovqat importiga bog‘liqlik darajasini keskin oshirib yuborishini taxmin qilish mumkin.

Xulosa va takliflar

Yuqorida ko‘rilgan masalalar yuzasidan xulosa qilish mumkinki, O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari importini optimallashtirishda bojxona hududida qayta ishlash rejimi imkoniyatlaridan foydalanish muhimdir. Shu sababdan, bojxona hududida qayta ishlash rejimi tartibotlarini jahon tajribasi asosida yanada takomillashtirish, uni qo‘llashda to‘siq bo‘layotgan muammoli holatlarni bartaraf etish yo‘nalishida quyidagi choralarni ko‘rish maqsadga muvofiq:

- tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida bojxona hududida qayta ishlash rejimi imkoniyatlarini keng tushuntirish va amaliy ko‘mak berishga qaratilgan ishlarni tizimlashtirish, ko‘p import qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlarini mamlakat ichkarisida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tavsiyalar berib borish;

- ko‘p import qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari tarkibini tahlil qilgan holda, sohaga oid mutaxassislar ishtirokida ushbu tovarlarning tavsiyaviy standart chiqish normalarini tasdiqlash;

- ayrim oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalaniladigan va ko‘p miqdorda olib kiriladigan xomashyolarni qayta ishlash mahsulotlarida identifikatsiyalash talabini bekor qilish. Misol uchun: shakar, kakao kukuni, o‘simliklardan olingan yog‘lar, un, sut mahsulotlari;

- yuqorida tahlil qilingan 25 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari qayta ishlangandan so‘ng erkin muomalaga chiqarilganda olib kirilgan xomashyolarga nisbatan qo‘llaniladigan bojxona to‘lovlaridan ozod qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi bojxona kodeksi: rasmiy matn. – T.: O‘zbekiston, 2016. – 173 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 25.04.2022-yildagi PF-115- son.
3. Гусаков В. Г. и др. Продовольственная безопасность: термины и понятия: энциклопедический справочник/В. Г. Гусаков и др.//Национальная академия наук Беларуси, Институт системных исследований в АПК. – Минск: 2008. – 535 с.
4. Abdullah Takim, Ş. Mustafa Ersungur Dahilde işleme rejimi: Ihracat ve ithalat üzerindeki etkisi/Abdullah Takim//Atatürk Üniversitesi İktisadi ve İdari Bilimler Dergisi. – 2010. № 2. – С. 24.
5. <https://president.uz>
6. <https://customs.uz>
7. <https://stat.uz>
8. <https://comtradeplus.un.org>